

# SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yilning yanvar-iyun oylarida Surxondaryo viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rirlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 21 381,9 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2023-yilning yanvar-iyun oylari bilan taqqoslaganda 5,4 % ga o'sdi.

YAHM deflyator indeksi 2023-yilning yanvar-iyun oylari narxlariiga nisbatan 109,0 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Surxondaryo viloyatining qo'shgan hissasi 3,8 % ga yetdi.

## 2024-yilning yanvar-iyun oylarida Surxondaryo viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot



105,4 %

21 381,9 mlrd. so'm



109,0 %

3,8 %

- YAHM o'sish sur'ati
- YAHM hajmi
- YAHM deflyator indeksi
- YAIMga qo'shgan hissasi

## 2023-2024-yillarning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari boʼyicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va oʼsish surʼatlari

	Mird. soʼm		Oʼsish surʼatlari, oʼtgan yilning mos davriga nisbatan % da
	2023-yil	2024-yil	
<b>I. YAHM, jami</b>	<b>18 600,2</b>	<b>21 381,9</b>	<b>105,4</b>
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qoʼshilgan qiymati	18 225,9	21 021,0	105,5
mahsulotlarga sof soliqlar	374,3	360,9	102,2
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qoʼshilgan qiymati</b>	<b>18 225,9</b>	<b>21 021,0</b>	<b>105,5</b>
qishloq, oʼrmon va baliqchilik xoʼjaligi	8 610,8	9 332,3	103,7
<b>sanoat (qurilishni qoʼshgan holda)</b>	<b>2 752,0</b>	<b>3 428,9</b>	<b>108,3</b>
sanoat	1 198,9	1 735,1	108,2
qurilish	1 553,1	1 693,8	108,3
<b>xizmatlar</b>	<b>6 863,1</b>	<b>8 259,8</b>	<b>106,7</b>
savdo, yashash va ovqatlanish boʼyicha xizmatlar	1 562,6	1 908,8	113,1
tashish va saqlash, axborot va aloqa	816,0	1 008,6	112,8
boshqa xizmat tarmoqlari	4 484,5	5 342,4	103,3



Quyida keltirilgan infografikadan ko‘rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 7 392,7 ming so‘mni tashkil etdi va bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 2,9 % ga yuqoridir.

## 2023-2024-yillarning yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi (ming so‘mda)



## 2023-2024-yillarning yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o‘sish sur’atlari (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % hisobida)



**2023-2024-yillarning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat  
turlari boʼyicha YAHM tarkibi  
(jamiga nisbatan % da)**

	<b>2023-yil</b>	<b>2024-yil</b>
<b>I. YAHM, jami</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qoʼshilgan qiymati	98,0	98,3
mahsulotlarga sof soliqlar	2,0	1,7
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qoʼshilgan qiymati</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
qishloq, oʼrmon va baliqchilik xoʼjaligi	47,2	44,4
<b>sanoat (qurilishni qoʼshgan holda)</b>	<b>15,1</b>	<b>16,4</b>
sanoat	6,6	8,3
qurilish	8,5	8,1
<b>xizmatlar</b>	<b>37,7</b>	<b>39,2</b>
savdo, yashash va ovqatlanish boʼyicha xizmatlar	8,6	9,1
tashish va saqlash, axborot va aloqa	4,5	4,8
boshqa xizmat tarmoqlari	24,6	25,3



2024-yilning yanvar-iyun oylarida hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qoʼshilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiyligi YAHMning 98,3 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 1,7 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, oʼrmon va baliqchilik xoʼjaligining YAHMning tarmoqlar boʼyicha tarkibidagi ulushi 44,4 % ni, sanoat tarmogʼi 8,3 % ni, qurilish 8,1 % ni va xizmatlar sohasi 39,2 % ni tashkil qildi.

## 2023-2024-yillarning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari boʼyicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

2023-yil



47,2 % Qishloq, oʼrmon va baliqchilik xoʼjaligi

2,0 %

6,6 % Sanoat

8,5 % Qurilish

37,7 % Xizmatlar

2024-yil

Qishloq, oʼrmon va baliqchilik xoʼjaligi

44,4 %

1,7 %

Sanoat

8,3 %

Qurilish

8,1 %

Xizmatlar

39,2 %



Yalpi qoʼshilgan qiymat

Mahsulotlarga sof soliqlar

YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 1,7 f.p. (2023-yilning yanvar-iyunida – 1,7 f.p.), sanoat tarmog'i – 0,5 f.p. (2023-yilning yanvar-iyunida – 0,4 f.p.), qurilish tarmog'i – 0,7 f.p. (2023-yilning yanvar-iyunida – 0,8 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 2,5 f.p. (2023-yilning yanvar-iyunida – 1,8 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi.

Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,04 f.p. (2023-yilning yanvar-iyunida – 0,3 f.p.) ga ko'paydi.

## 2024-yilning yanvar-iyun oylarida YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)

### YAHM



5,4 %

### Sanoat



1,7 %

0,5 %

### Xizmatlar



0,7 %

2,5 %

### Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



### Qurilish



0,04 %

### Mahsulotlarga sof soliqlar




2024-yilning yanvar-iyun oylarida YAHMning oʼsishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy oʼshish surʼatlari bilan bogʼliqdir. Oʼsish surʼatlari qishloq, oʼrmon va baliqchilik xoʼjaligida 103,7 % (YAHMning tarmoqlar boʼyicha tarkibidagi ulushi – 44,4 %), sanoatda – 108,2 % (8,3 %), qurilishda – 108,3 % (8,1 %), xizmatlar sohasida – 106,7 % ni (39,2 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida oʼsish surʼatlari savdo, yashash va ovqatlanish boʼyicha xizmatlarda 113,1 % (9,1 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 112,8 % (4,8 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 103,3 % dan (25,3 %) iborat boʼldi.

**2023-2024-yillarning yanvar-iyun oylarida YAHMning  
iqtisodiy faoliyat turlari boʼyicha mutlaq oʼsish surʼatlari  
(oʼtgan yilning mos davriga nisbatan % da)**

2023-y.

2024-y.




2024-yilning yanvar-iyun oylarida YAHM deflyatori indeksi 2023-yilning yanvar-iyun oylaridagi narxlarga nisbatan 109,0 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori koʼrsatkichlari sanoatda – 133,8 % va xizmatlar sohasida – 112,8 % qayd etildi.

**2023-2024-yillarning yanvar-iyun oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha deflyator indeksi**  
(oʼtgan yilning mos davriga nisbatan % da)

2023-y.

2024-y.



2024-yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik 15 815,3 mlrd. soʻmni tashkil etdi (2023-yilning yanvar-iyun oylarida – 13 683,8 mlrd. soʻm). YAHMdagi ulushi 75,2 % ni (2023-yilning yanvar-iyun oylarida – 75,1 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining oʻtgan yilning mos davriga nisbatan oʼsishi yirik korxonalar ulushining kamayishi bilan bogʼliq.

## 2023-2024-yillarning yanvar-iyun oylarida kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan %da)

Hajmi, mlrd. soʻm

Ulushi, % da



2023-yil

13 683,8

75,1 %

2024-yil

15 815,3

75,2 %

